

Sunnat Shavkat o‘g‘li Nasilloyev

Buxoro viloyat davlat arxivi

yetakchi metodisti

sunnatnasilloyev5@gmail.com

+99899 700 28 70

MEHNATIDAN QADR TOPGAN AYOLLAR

(Arxiv ishi tizimida faoliyat yuritayotgan rahbar ayollar haqida qisqacha)

Kalit so‘zlar: Xotin-qizlar huquqlari, Gender tengligi, arxiv ishi hududiy boshqarmasi, Zarafshon viloyat, direktor, Davlat arxivi boshlig‘i, shaxsiy tarkib hujjatlari, “Ustoz-shogird” an’analari, yosh arxiv xodimlari, sulolaviy faoliyat

Annotatsiya. Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirishning nihoyatda muhim bir tamoyilidir. Ayollar va qizlarga qarshi barcha turdagи kansitishlarni yo‘q qilish nafaqat inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazardan muhimdir, balki boshqa sohalarda ham rivojlanish jarayoniga ta’sir etuvchi kuchli omillardan biridir. Zero ular nafaqat oilada, balki korxona, tashkilot va muassasalarda muhim hodim, rahbardirlar ham.

Buxoro viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi faoliyati 1925 yil boshida Buxoroda Zarafshon viloyat ishchilar kengashi Dehqon va Qizil Armiya deputatlari Ijroiya qo‘mitasi qoshida Zarafshon viloyatining 4 tumani bazasida Zarafshon arxiv byurosi tashkil etilgan.

1927 yilda Zarafshon viloyati tugatilishi va Buxoro okrugining tashkil topishi munosabati bilan Buxoro okrug arxiv byurosi deb nomlangan.O’tgan qariyb bir asrlik davr mobaynida o‘z nufuzi va mavqeiga ega bo’lgan ushbu davlat tashkilotida juda ko’plab soha mutaxassislari, o‘z kasbining fidoiylari bo’lgan xotin-qizlar faoliyat olib boganlar. Biz ushbu fikrlarimiz isboti sifatida Buxoro viloyat davlat arxivi saqlovidagi arxiv muassasasiga tegishli hujjatlarni asosli tarzda keltira olamiz. Zero ushbu arxiv hujjatlari tarixning shonli zarvaraqlaridir.

Buxoro viloyat davlat arxivi direktori

1941-1943 Tanaeva Nina Ivanovna

1955-1956 Valitova Maryam Garifovna (Buyruq №13 1955 yil 2 aprel)

fond-672, ro‘yxat-2, yig‘majild-84, bet-60)

1958 Vereshagina Anna Andreevna (Buyruq № 36§ 4 1958 yil 27 noyabr)

fond-672, ro‘yxat-2, yig‘majild-92, bet-3

1972-1979 Kandibina J.B.

1979-1987 Nasirova Raisa Aminovna (Buyruq 113 1987 yil 16 oktabr)

fond-672, ro‘yxat-1, yig‘majild-127

1987-1990 Molchanova Nadejda Ivanovna (Buyruq №9 1994 yil 2 may)

fond-672, ro‘yxat -1, yig‘majild-135.

1998 yildan Abbosova Saodat Ibragimovna (Buyruq №13 1997 yil

1iyuldan) (Buyruq № 1 1998 yil 12 yanvardan)

Biz eslaganda sharaf va sadoqat hissini his etadigan, barcha arxiv tizimi hodimlari uchun o’rnak bo’lgan ushbu ustozlarimizning mehnatlari, soha istiqbolidagi jonkuyarliklari diqqatga sazovordir.



Maryam Garifovna Valitova -1931 yil 13 avgustda Boshqirdistonning Fedorov tumani, Pugachevsk qishloq sovetidagi Yurmata qishlog’ida dehqon oilasida dunyoga kelgan. Valitovalar oilasi 1949 yilda O’zbekiston SSRning Buxoro viloyati Qiziltepa (hozirgi Navoiy viloyatiga qarashli tuman) tumaniga ko’chib kelishadi. 1949 yilda Maryam Valitova Buxoro shahridagi kutubxona xodimlarining uch oylik kursini tugatgan. 1950-1955 yillar davomida Qiziltepa tumanidagi Gardyan qishloq kengashida kutubxona mudirasi, tuman qishloq xo’jaligi bo’limining kotibasi, yoshlar tashkilotining sektor mudiri vazifalarida faoliyat yuritgan. 1954 yilda esa Sergo-Orjonikidze nomidagi Buxoro Davlat pedagogika institutining tarix fakultetida sirtdan o’qishga qabul qilingan va o’z faoliyatini arxiv sohasida davom ettirgan.

1955 yil 1 apreldidan Buxoro viloyati Davlat arxivisi boshlig'i, 1958 yil 24 noyabridan katta ilmiy xodim, 1967 yildan 20 yil mobaynida esa Buxoro viloyati ijroiya qo'mitasining arxiv bo'limi mudiri lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi.

1972 yil 21-25 avgustida Moskva shahrida bo'lib o'tgan Arxivlarning UP xalqaro kongressida ishtirok etadi, arxivlar ishini rivojlantirish borasida fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashadi va qator takliflar kiritadi. Shuningdek Maryam Garifovna Valitova 1962-yil 7-mart, 1974-yil 18 fevral, 1979-yil 8-iyunda va Arxiv tizimi rivojiga qo'shgan hissasi uchun munosib taqdirlangan O'zbekiston ASSR Kompartiyasi tashkil topganligining 50 yilligi taqdirlangan.

M. Valitovaning uzoq yillik say'-harakatlari natijasida 1976 yilda viloyat Davlat arxivining hozirgi binosi qurilishi tugallanib, foydalanishga topshiriladi.

Biz, Buxoro viloyat arxiv muassasalaridagi ayol rahbarlar haqida yanada ko'p ma'lumotlar taqdim eta olamiz.

**Buxoro tuman davlat arxivida 1979-2019 yillarda faoliyat olib borgan
rahbarlar**

Nazarova Robiya - 1979-1982 yillar

Sayfulloyeva Salomat Yarashevna - 1983-2007 yillar

Toyirova Nodira Muhiddinovna - 2008-2017 yillar

Zoitova Sanobar Sattorovna - 2017 yil h.v

**Vobkent tuman davlat arxivida 1981-2019 yillarda faoliyat olib borgan
rahbarlar**

Hakimova Hojar- 1981 yil

Shirinova Ra'no - 1981-1996 yillar

**Kogon shahar davlat arxivida 1970-2019 yillarda faoliyat olib borgan
rahbarlar**

Maksimova Mariya Fedorovna - 1970-1971 yillar

Shlikova Lidiya Antonovna - 1971-2009 yillar

Mavlyanova Hilola Aminovna - 2010 yildan h.v.

Peshko' tuman davlat arxivida faoliyat olib borgan rahbar

Hayitova Risolat Rashidovna - 1978-2005 yillar

Qorovulbozor tuman davlat arxivida faoliyat olib borayotgan rahbar

Ismailova Nasiba Haydarovna - 2015 yildan h.v

G‘ijduvon tuman davlat arxivida faoliyat olib borgan rahbarlar

Faxritdinova Lyaila - 1943-1975 yillar

Abdiyeva Halima - 1976-2005 yillar

**Vobkent tuman shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivida
faoliyat olib borgan rahbarlar**

Qambarova Musharraf Muxtorovna - 2012-2016 yillar

Xudoyorova Nilufar Najmuddinovna - 2016-2019 yillar

**Jondor tuman shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivida
faoliyat olib borgan rahbarlar**

Zaripova Samiya - 1983-1984 yillar

Baqoyeva Latofat Baratovna - 1987-2010 yillar

**Olot tuman shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivida
1990-2019 yillarda faoliyat olib borgan rahbarlar**

Surxiyeva Zulayho Qilichevna - 2002-2009 yillar

Toshpo‘lotova Hilola Jumamurotovna - 2011 yildan h.v

Sulola - muayyan urug‘, avlod, nasl-nasabga asoslangan, vorislik, valiahdlik xuquqiga ega bo‘lgan, asosan, birin ketin taxtga o‘tirgan podsholar, amir lar va xonlar naslidir. Qadimdan O’rta Osiyo xalqlarida sulolaviy ixtisoslikka ega oilalar (xox u hukmdor bo’lsin, xox usta hunarmand) juda qadrlangan, hurmat qilingan. Ushbu qadr va iftixor asrlar osha bizning qon-qonimizga, ma’naviyatimizga singgib ketgan...

Hozirgi kunda Buxoro tuman davlat arxivida rahbarlik faoliyatini amalga oshirayotgan Zoitova Sanobar Sattorovna ham arxivchilar oilasining vakilasi sanaladi. O‘z ish faoliyatini 2005-yilda Buxoro tuman idoralararo shaxsiy tarkib arxivida boshlagan Sanobar Sattorovna o‘zining ishga muhabbat, sadoqati va o‘z ustida tinimsiz ishlashi natijasi o‘laroq 2017-yilning 24-iyulidan boshlab Buxoro tuman davlat arxivida direktor lavozimiga tayinlangan va bugungi kunga qadar munosib ravishda faoliyat yuritmoqda. Sanobar Sattorovna faoliyati davomida shu

sohada uzoq yillar faoliyat yuritgan ulkan tajriba matabiga ega onasi va xolasining maslahatlariyu ko'nikmalariga tayanib "Ustoz-shogird" an'analariga muvofiq ish ko'rib kelmoqda. Zamonaviy xizmat ko'rsatish, iqtisodiyot, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida biror sohada faoliyat yuritish, rivojlantirish va takomillashtirishning muhim yosh kadrlarga foaliyatdagi sir-asrорlarni mukammal darajada o'rgatishdan iborat. Ustoz-shogird an'analarini orqali esa ushbu masalalarning ijobiylar hal etilishiga erishiladi.

Shuningdek, "Ustoz-shogird" an'analarini boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish, amaliy tajribaning kamchiliklarini bartaraf etish, mutaxassis kadrning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishning uslubiy bazasini takomillashtirishga yordam beradi.

Har bir davlat tashkilotida bo'lgani kabi Buxoro viloyat davlar arxivlarida ham Ustoz nomi va hurmatiga loyiq insonlar juda bisyor.

Sanobar Sattorovnaning onalari Sayfullloeva Sharofat Yarashevna ham 1980-yildan 2015-yilga qadar Buxoro tuman idoralararo shaxsiy tarkib arxivida olib borgan faoliyatlari davomida to'plagan malakalarini hech ikkilanmay nafaqat qizlariga balki tuman davlat arxivida faoliyat yuritayotgan yosh arxiv xodimlariga bajonu-dil o'rgatishda doimo shaylar.

Shuningdek, Buxoro tuman davlat arxivining sobiq rahbari Hojieva Salomat Yarashevna ham o'zlarining 1982-yildan 2006-yilga qadar sohadan to'plagan bilim, ko'nikma va malakalari bilan o'rtoqlashishga tayyorliklarini, eshiklari doimo ochiqligini ta'kidlaydilar. Sulolaviy faoliyat nafaqat yosh kadrlarni bizga mukammal tarzda tayyorlab beradi, balki, ushbu jarayon bo'lg'usi kadrning kasb etikasi doirasida voyaga yetishida ham o'z ijobiylarini beradi.

Mamlakatimizni jadal rivojlantirish islohotlarining yangi bosqichi bilan bog'liq masalalarga ijobiylar hamda samarali yonshadish, "2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" ni amalga oshirish, oldinga siljish - barchamiz, ayniqsa, yosh avloddan - bugungi va ertangi kunning hal qiluvchi kuchidan faollik talab qiladi. Har bir davlat tashkilotlaridagi mehnat faoliyatini modernizatsiya qilishning muvaffaqiyati,

birinchi navbatda, tajribali ustozlar, ularning malakasi va kasb mahoratlarini yosh mutaxasislarga o'rgatishlari, o'z professional tajribalarini o'rtoqlashishlari bilan bog'liqdir.

Zamonaviy xizmat ko'rsatish, iqtisodiyot, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida biror sohada faoliyat yuritish, rivojlantirish va takomillashtirishning muhim yosh kadrlarga foaliyatdagi sir-asrorlarni mukammal darajada o'rgatishdan iborat. Ustoz-shogird an'analari orqali esa ushbu masalalarning ijobi hal etilishiga erishiladi.

Shuningdek, “Ustoz-shogird” an'analari boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish, amaliy tajribaning kamchiliklarini bartaraf etish, mutaxassis kadrning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishning uslubiy bazasini takomillashtirishga yordam beradi.

Har bir davlat tashkilotida bo'lgani kabi Buxoro viloyat davlar arxivida ham Ustoz nomi va hurmatiga loyiq insonlar juda bisyor. Bu borada so'z yuritganda Zulfiya opa Jumayevani alohida ta'kidlash o'rinnlidir. Zulfiya opa Jumayeva 1943-yil 17-oktyabrdan tug'ilganlar. 1970-yildan 2005-yilgacha arxiv sohasida faoliyat yuritgan soha fidoiysining erishgan yutuqlari, o'ttiz besh yillik malaka va tajribalari yosh kadrlar uchun juda qimmatlidir.

Shu sababdan ham Buxoro viloyat davlat arxivida yo'lga qo'yilgan “Ustoz-shogird” an'analari davom ettirish natijasida tajribali restavrator ancha yillardan buyon o'z shogird (yosh arxiv hodim)lariga soha sirlarini o'rgatib kelmoqdalar. Ustozimizning sharafli, hamda o'rnakli ish faoliyatları biz uchun o'rnak, shuningdek faxr hamdir.